Аннотация. В статье рассматриваются перспективы информационного обеспечения и его цифровизации для повышения эффективности управления жилищным фондом в условиях урбанизации. В исследовании обосновано значение формирования информационных систем, электронного реестра, цифрового мониторинга и базы данных по коммунальным услугам в управлении жилищным фондом. Также отмечается, что внедрение цифровых технологий способствует повышению прозрачности, оперативности и эффективности управленческих процессов.

Ключевые слова: жилищный фонд, цифровая экономика, коммунальные услуги, цифровая трансформация, информация.

KIRISH

Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi shaharlar hududida aholi soni, ko'p kvartirali uy-joylar, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda kommunal xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Bu holat uy-joy fondini boshqarish tizimiga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Chunki uy-joy fondi nafaqat aholining yashash sharoitini ta'minlovchi ijtimoiy infratuzilma elementi, balki katta qiymatga ega bo'lgan iqtisodiy aktiv ham hisoblanadi. Uni samarali boshqarish uylarning texnik holatini saqlash, umumiy mulkdan oqilona foydalanish, energiya tejamkorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va aholining turmush farovonligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Urbanizatsiya sharoitida uy-joy fondini boshqarishning murakkablashuvi, avvalo, ko'p kvartirali uylar sonining ortishi, mavjud uy-joylarning eskirishi, kommunal tarmoqlarning yuklamasi oshishi hamda boshqaruv subyektlari faoliyatida axborot almashinuvi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi. Amaliyotda uy-joylarning texnik pasporti, ta'mirlash ishlari, majburiy badallar, qarzdorlik, energiya sarfi, avariya holatlari, murojaatlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha ma'lumotlarning turli manbalarda saqlanishi boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilishni murakkablashtirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, uy-joy fondini boshqarishda axborot ta'minotini takomillashtirish va uni raqamlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot ta'minoti boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u uy-joy fondining texnik, iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy va hududiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash hamda ulardan foydalanishni nazarda tutadi. Sifatli va ishonchli axborot bazasi boshqaruv kompaniyalari, mulkdorlar, kommunal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda davlat organlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uy-joy fondi bo'yicha yagona elektron reyestr yaratish, har bir ko'p



kvartirali uyning texnik va moliyaviy holatini onlayn monitoring qilish, elektron to'lov hamda billing tizimlarini kengaytirish, mulkdorlarning murojaatlarini raqamli platformalar orqali qabul qilish mumkin bo'ladi. Shuningdek, geografik axborot tizimlari, BIM texnologiyalari, buyumlar interneti, mobil ilovalar va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish uy-joy fondining texnik holatini prognozlash, avariya xavfini oldindan aniqlash hamda ta'mirlash ishlarini ustuvorlik asosida rejalashtirish imkonini beradi.

Uy-joy fondini boshqarishdagi axborot ta'minotining raqamlashtirilishi xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, xarajatlar shaffofligini ta'minlash, boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va mulkdorlarning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini faollashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, raqamli platformalarning joriy etilishi boshqaruv kompaniyalari faoliyatini baholash, debitor qarzdorlikni nazorat qilish, ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish hamda resurslardan oqilona foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi urbanizatsiya sharoitida uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda axborot ta'minotining o'rni va ahamiyatini yoritish, mavjud axborot oqimlarini raqamlashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash hamda uy-joy fondini boshqarishda yagona raqamli platformani shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy fondini boshqarish va raqamli iqtisodiyot masalalariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda, avvalo, aktivlarni boshqarish, bino va inshootlardan foydalanish, raqamli texnologiyalar, energiya samaradorligi hamda shahar infratuzilmasini boshqarish yo'nalishlari ustuvor o'rin egallaydi.

Xususan, Shahzad, Shafiq, Douglas va Kassemning tadqiqotlarida "Digital Twin" texnologiyasi bino va inshootlarning fizik holatini raqamli model bilan uzviy bog'lash imkonini beruvchi zamonaviy vosita sifatida yoritilgan. Digital Twin BIM, IoT sensorlari, real vaqt ma'lumotlari va tahliliy algoritmlarni birlashtirib, bino elementlarining holatini monitoring qilish, nosozliklarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Milliy manbalarda ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirish, boshqaruv organlari faoliyatini tartibga solish, umumiy mulkni saqlash va elektron reyestr mexanizmlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, R. I. Nurimbetov, T. A. Hasanov, I. X. Davletov, A. S. Sultanov va Q. E. Rahimovlarning uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy ishlari mazkur yo'nalishdagi muhim nazariy-uslubiy manbalardan hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda uy-joy fondini boshqarish mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish, umumiy mulkni saqlash, texnik xizmatlarni tashkil etish, ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish hamda boshqaruv kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq murakkab tashkiliy-iqtisodiy jarayon sifatida talqin etilgan. Uy-joy fondining holatini muntazam monitoring qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va xizmatlar sifatini baholash tizimini rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan.

Umuman olganda, xorij va mahalliy olimlarning tadqiqotlari uy-joy fondini boshqarishning institutsional, tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy asoslarini keng yoritganini ko'rsatadi. Biroq uy-joy fondining texnik holati, energiya iste'moli, kommunal to'lovlar, ta'mirlash xarajatlari, mulkdorlar murojaatlari va boshqaruv kompaniyalari faoliyatini yagona raqamli platformada integratsiyalash masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, uy-joy fondini boshqarishda BIM, GIS, IoT, billing tizimi, elektron reyestr, sun'iy intellekt va raqamli monitoring vositalarini yagona boshqaruv modeliga birlashtirish dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati, funksiyalari, ishtirokchilari va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish hamda xulosalar chiqarish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda oxirgi yillarda uy-joylar soni jadal ortib bormoqda. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, umumiy uy-joy fondi hajmi 700 mln kv. m dan oshgan. Biroq bu fondning boshqaruvi va monitoringi hali ham yetarlicha raqamlashtirilmagan. Shu bois, uy-joy fondining texnik holati, xizmat ko'rsatish sifati, to'lov intizomi va boshqaruv samaradorligini oshirishda axborot tizimlarini joriy etish muhim masalalardan biridir.

Raqamlashtirish tendensiyasi iqtisodiyotning barcha sohalariga turli darajada ta'sir ko'rsatmoqda, shu jumladan, uy-joy kommunal xo'jaligi va uy-joy fondini boshqarish ham bundan mustasno emas. Uy-joy fondi boshqaruvi — ko'p omilli, murakkab va uzluksiz nazorat talab qiluvchi jarayondir. Uning samaradorligi, avvalo, to'g'ri va tezkor axborot bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Axborot ta'minoti uy-joy fondi boshqaruv tizimining "asosiy tizimi" bo'lib, uning texnik holatni baholash, kommunal xizmatlar monitoringi, moliyaviy hisob-kitoblar, fuqarolar murojaatlari va boshqa muhim jarayonlarning ishonchli, aniq va real vaqt rejimida boshqarilishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari ko'plab shahar xizmatlari samaradorligini oshirish imkonini beradi va eng

muhimi, xarajatlarni kamaytiradi. Shu bois, uy-joy fondini boshqarish sohasini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon metodologik va texnologik yechimlar orqali amalga oshirilib, boshqaruvni iqtisodiy va axborot-tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bunga uy-joy fondidagi har bir obyekt haqidagi ma'lumotlarni izlash, to'plash, qayta ishlash, o'zgartirish, saqlash, tarqatish va ulardan foydalanish kabi jarayonlar kiradi.

Ko'p qavatli uylar singari murakkab obyektlarni samarali boshqarish to'liq va tizimli axborot bilan ta'minlanishni talab etadi. Hozirda uy-joy fondini boshqarish tizimida ko'p kvartirali uylarning konstruktiv qismlari hamda muhandislik tizimlarining texnik holati bo'yicha yangilanadigan va ishonchli ma'lumotlar yetarli darajada shakllanmagan. Buning natijasida zamonaviy talablarga mos boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish murakkablashmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda 2016–2024 yillar davomida uy-joy fondi boshqaruvida elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni, ming kishi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida uy-joy fondidan foydalanishni boshqarish sohasidagi qarorlar binolarning texnik va iqtisodiy holati to'g'risidagi dolzarb, to'liq va ishonchli axborotga asoslanishi lozim. Faqat shundagina turar-joy binolarining haqiqiy eskirish darajasini va ta'mirlash ehtiyojini aniqlash, shuningdek, binolarni tegishli darajada saqlash uchun zarur bo'lgan ta'mirlash-tiklash ishlarini rejalashtirish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi 2016-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda uy-joy fondi boshqaruvida elektron xizmatlardan foydalanuvchilar sonining dinamikasi aks ettirilgan (1-rasm).

Ushbu o'sish raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, interaktiv platformalarning takomillashuvi va aholining raqamli savodxonligi oshgani bilan izohlanadi. Raqamlashtirish nafaqat boshqaruv jarayonining tezligi va shaffofligini oshiradi, balki fuqarolarning murojaatlarini elektron tarzda kuzatish imkonini ham beradi.

Uy-joy fondidan foydalanishni boshqarishning axborot bazasini shakllantirish uchun turar-joy binolarining texnik holatini doimiy ravishda kuzatish (ma'lumot to'plash), baholash va bashorat qilish zarur. Bu, bizningcha, turar-joy binolarining texnik holati to'g'risidagi axborot ta'minoti tizimini tashkil etadi. Ushbu tizim doirasida binolarning texnik holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish, kelajakdagi holatini bashorat qilish hamda uy-joy fondining xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan tavsiyalarni tayyorlash amalga oshiriladi.

Axborot bazasining asosiy maqsadi boshqaruv organlari, uy-joy mulkdorlari va boshqaruvchi tashkilotlarni to'liq, o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlashdir. Bu ma'lumotlar uy-joy fondining tegishli texnik holatini saqlash, fuqarolarning xavfsiz va qulay yashash sharoitlarini yaratish hamda uy-joydan foydalanish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir.

Albatta, axborot bazasidan samarali va o'z vaqtida foydalanish bu tizimdan foydalanuvchilarning foydalanish madaniyati mavjudligiga ham bog'liqdir. Bugungi kunda O'zbekistonda uy-joy fondi boshqaruvida elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni 80 mingdan oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Samarali va yaxlit boshqaruvni ta'minlash uchun boshqaruv obyekti va subyekti o'rtasidagi o'zaro ta'sirning faollik darajasini ifodalovchi axborotning butun doirasi bo'yicha yagona tizim tashkil etilishi lozim.

Axborot boshqaruv mehnatining predmeti, vositasi va mahsulidir. Boshqaruv axborotiga qo'yiladigan bir qator talablarni ta'kidlash lozim: ishonchlilik (va haqqoniylik), o'z vaqtidalik, manzillilik va ko'p marta foydalanish imkoniyati.



Muayyan boshqaruv vaziyatida noaniqlikni kamaytiradigan ma'lumotlarga haqiqatan ham qimmatlidir.

Axborot boshqaruv jarayonining asosi hisoblanadi, boshqaruvchi mehnati esa uni o'rganish va qayta ishlashdan iborat. Boshqaruvning samaradorligi axborotni to'plash, qayta ishlash va uzatishni tashkil etish darajasiga bog'liq.

Boshqaruv axboroti bir qator xususiyatlarga ega:

katta hajmdagi axborot qat'iy cheklangan muddatlarda qayta ishlanishi kerak;

boshlang'ich ma'lumot turli ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan va iste'molchilar talablarini inobatga olgan holda bir necha bor qayta ishlanadi;

dastlabki ma'lumotlar va hisob-kitob natijalari uzoq vaqt davomida saqlanadi.

Boshqaruv ma'lumotlariga qo'yilgan bu talablarni faqat yuqori tezlikka va katta xotira hajmiga ega bo'lgan kompyuter texnikasi bajara oladi. Shu sababli, ishlab chiqarish ma'lumotlarini saqlashning eng maqbul usuli ma'lumotlar bazalari va banklarini yaratishdir. Bular foydalanuvchilar jamoasini yoki tizimda hal qilinadigan vazifalar majmuini markazlashgan tarzda ta'minlaydigan, funksional tashkil etilgan kompyuter ma'lumotlari massivlaridir. Ma'lumot massivlarini yaratish va ulardan foydalanishning ushbu usulida bir guruh mutaxassislar ma'lumotlarni qayta ishlab, ma'lumotlar bankiga kiritadi, boshqa mutaxassislar esa undan turli ishlab chiqarish jihatlarida foydalanadi. Bu jarayonda interaktiv, ya'ni har ikki tomondan faol ishlash rejimi ta'minlanadi.


Ko'p kvartirali uylar kabi murakkab obyektlarni boshqarish jarayoni to'liq axborot ta'minotini talab etadi. Uy-joy fondini boshqarish tizimida ko'p kvartirali uylarning konstruktiv elementlari va muhandislik tizimlarining texnik holati haqidagi dolzarb va ishonchli ma'lumotlar bazasi yetarli darajada shakllanmagan. Buning natijasida zamonaviy talablarga mos boshqaruv jarayonini samarali tashkil etish murakkablashmoqda.

Uy-joy fondidan foydalanishni boshqarishning axborot bazasini shakllantirish uchun turar-joy binolarining texnik holatini doimiy ravishda kuzatish (ma'lumot to'plash), baholash va bashorat qilish zarur. Bu, bizningcha, turar-joy binolarining texnik holati to'g'risidagi axborot ta'minoti tizimini tashkil etadi. Ushbu tizim doirasida binolarning texnik holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish, kelajakdagi holatini bashorat qilish hamda uy-joy fondining xizmat muddatini uzaytirishga qaratilgan tavsiyalarni tayyorlash amalga oshiriladi.

V. V. Salixovning ishida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish sohasini kengaytirish imkonini beruvchi yangi texnik-iqtisodiy pasportlar asosida axborot tizimi tuzilmasini takomillashtirish taklif etilgan. Texnik-iqtisodiy pasportni quyidagi axborot to'plamlari bilan to'ldirish taklif etiladi. Ular mustaqil pasportlar hisoblanadi, ammo mavjud ma'lumotlarni boshqarishning umumiy mexanizmini tashkil etish bilan umumiy tuzilmaga kiradi: fasadlar pasporti; energetika pasporti; muhandislik tarmoqlari va tizimlari pasporti; ekologik pasport; ijtimoiy pasport; Favqulodda vaziyatlar vazirligi pasporti va h.k.

Uy-joy fondini boshqarishni axborotlashtirish tizimi ko'p qavatli uylarni boshqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida qo'llaniladigan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar majmuasidir. U boshqaruvchi kompaniyalar, uy-joy mulkdorlari shirkatlari va uy-joy fondini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan boshqa subyektlar faoliyatini hisobga olish, nazorat qilish, rejalashtirish va optimallashtirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi (2-rasm).

Bunday tizimning joriy etilishi, avvalo, uy-joy fondini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash imkonini beradi. Chunki elektron pasport orqali obyektning texnik holati, foydalanish muddati, amalga oshirilgan va rejalashtirilayotgan ta'mirlash ishlari, kommunal xizmatlardan foydalanish darajasi va to'lovlar bo'yicha barcha ma'lumotlar real vaqt rejimida kuzatib borilishi mumkin bo'ladi.



2-rasm. Uy-joy fondi boshqaruvida samarali raqamlashtirish tizimi¹.

Natijada, ushbu yondashuv uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bilan birga, aholiga yaratiladigan qulayliklarni oshiradi, davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlaydi hamda uy-joy mulkidan oqilona va samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Axborot to'plash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida turar-joy binolarini tegishli saqlash va kapital ta'mirlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida ta'mirlash-tiklash ishlarining istiqbolli rejaralarini va turar-joy binolarining texnik holatini boshqarishning turli xil maqbul modellarini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Axborot shaffofligi uning uy-joy munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun tushunarli va foydalanish mumkin bo'lishini anglatadi. Bu talab aynan uy-joy fondi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki bu sohada axborot ochiqligini ta'minlash bilan bog'liq institutsional va tashkiliy cheklovlar saqlanib qolmoqda.

Axborotning ishonchliligi haqiqiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishning majburiy shartidir. U noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilgani uchun javobgarlik choralari belgilovchi zarur me'yoriy-huquqiy baza bilan ta'minlanishi lozim.

Axborotning o'z vaqtida va muntazam berilishi rivojlanish jarayoniga tuzatishlar kiritish va uni tartibga solish imkonini beradi. Shuningdek, kuzatuvlarning uzluksizligi tamoyiliga amal qilish kerak. Bu monitoring to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatda belgilangan davriylik bilan ma'lumotlarni yangilashni nazarda tutadi. Chunki turar-joy binolarining texnik holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, vizual va asboblarda yordamida tekshiruvlar o'tkazishni taqozo etadi. Masalan, ma'lumotlarni yangilash yiliga bir yoki ikki marta o'tkazilishi va turar-joy binolarini mavsumiy foydalanishga tayyorlash davrida ularni ko'zdan kechirish bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin.

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Muhim tamoyillardan biri — ochiqlikdir. Turar-joy binolarining texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlar nafaqat hokimiyat organlari, balki turar-joy mulkdorlari, boshqaruvchi va pudratchi tashkilotlar, boshqa manfaatdor shaxslar uchun ham zarur. Ular bu ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Monitoringni tashkil etishda iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga rioya qilish ma'lumotlarning ishonchliligi, puxtaligi va tezkorligiga oid talablar bajarilgan holda ularni yig'ish, saqlash va qayta ishlashning eng kam xarajatlarini ta'minlashi lozim.

Nihoyat, axborot nafaqat qaror qabul qiluvchi shaxslar, balki uy-joy ne'matlaridan foydalanuvchilar — aholining ham tahlil qilishi uchun qulay, sodda va tushunarli shaklda taqdim etilishi kerak, chunki aholi uy-joy sohasidagi ijtimoiy hamkorlikning to'laqonli ishtirokchisidir.

Axborot ta'minoti turar-joy binolarining texnik holati haqidagi tizimli ma'lumotlar, me'yoriy-ma'lumotnoma materiallar hamda statistik ro'yxatlar va ma'lumotlar bazalariga kiritilgan ma'lumotlardan iborat bo'lishi lozim. Natijada quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar banki shakllanadi:

- obyekt haqidagi umumiy ma'lumotlar;
- resurs ta'minoti tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik;
- turar-joy binosining konstruktiv elementlari va muhandislik tizimlarining texnik holati (foizlarda);
- obyekt budjetining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Shunday qilib, yuqorida yangi elektron pasportning varianti taklif etilgan bo'lib, bizning fikrimizcha, u elektron pasportning samarali modelidir. Bunday pasportlarni tuzish jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash zarur.

Uy-joy fondining yangi elektron pasport modeli boshqaruvning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunday pasportlar orqali turar-joy obyektlari to'g'risidagi muhim texnik, huquqiy, moliyaviy va ekspluatatsion ma'lumotlar yagona elektron platformada to'plangan holda, boshqaruv organlari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda mulkdorlar o'rtasida ma'lumot almashinuvini soddalashtiradi va tezlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, biz tomonimizdan raqamli iqtisodiyot sharoitida uy-joy fondini boshqarish tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish doirasida aynan tashkiliy mexanizmga quyidagi vositalarni kiritishni taklif etamiz:

- innovatsion boshqaruvga asoslangan xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish;
- raqamli iqtisodiyotga mos zamonaviy resurslarga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil qilish;
- yangi raqamli "Aqlli servis" tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini shakllantirish;
- boshqaruv servis kompaniyalarining rasmiy elektron saytini yaratish.

Ushbu tizimni shakllantirishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining qo'llanilishi uy-joy fondini boshqarishda tashkiliy resurslarning raqamli transformatsiyasini, institutsional funksiyalarni avtomatlashtirishni va axborotga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.

Demak, elektron pasport tizimi nafaqat uy-joy infratuzilmasi haqida to'liq va aniqlashtirilgan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi, balki boshqaruvning tashkiliy mexanizmidagi koordinatsiya, monitoring va hisobot yuritish funksiyalarini yuqori samaradorlik bilan bajarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, turar-joy binolari texnik holatining samarali axborot bazasini yaratish favqulodda vaziyatlarning oldini olish, turar-joy binolariga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va mavsumiy foydalanishga tayyorlash ishlarining me'yoriy talablarga muvofiqligini nazorat qilish, turar-joy binolarining ekspluatatsiya muddati va kapital ta'mirlash vaqtini aniqlash imkonini beradi. Axborot to'plash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida turar-joy binolarini tegishli saqlash va kapital ta'mirlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida ta'mirlash-tiklash ishlarining istiqbolli rejalarini va turar-joy binolarining texnik holatini boshqarishning turli xil maqbul modellarini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. 1998-yil 24-dekabr. URL: <https://lex.uz/acts/-106136>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/doc-passport/-5030957>
3. Shahzad M., Shafiq M. T., Douglas D., Kassem M. Digital Twins in Built Environments: An Investigation of the Characteristics, Applications and Challenges // Buildings. 2022. Vol. 12, No. 2. Article 120. DOI: <https://doi.org/10.3390/buildings12020120>
4. Кахраманов Х. Ш. Цифровая трансформация сферы управления жилищным фондом города // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022. № 2. DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss2/a39
5. Боголюбов В. С., Васильева Н. В. Совершенствование экономических отношений в жилищной сфере: учебное пособие. Санкт-Петербург: СПбГИЭА, 1999. 128 с.
6. Салихов В. В. Организационно-экономический механизм паспортизации многоквартирных домов в крупном городе:



- дисс. ... канд. экон. наук. Санкт-Петербург: СПбГИЭУ, 2009. 161 с.
7. Mamanazarov O., Karimova A. Issues of Improving the Financial State of Management Service Companies // International Journal of Scientific Trends. 2025. Vol. 4, No. 8. P. 1–6. URL: <https://scientifictrends.org/index.php/ijst/article/view/610>
 8. Inoyatova D. Information Support in Housing Fund Management // Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. 2025. Vol. 3, No. 5. P. 95–101. URL: <https://webofjournals.com/index.php/12/article/view/4166>
 9. Inoyatova D. Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025. Vol. 3, No. 4. URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5210>
 10. Inoyatova D. O'zbekistonda so'nggi yillarda uy-joy fondining o'sishi holati // Innovations in Technology and Science Education. Proceedings of the 31st Conference "Prospects of Development of Science and Education". 2025. April.
 11. Inoyatova D. Analysis of Housing Stock Growth Dynamics in Uzbekistan in Recent Years // Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences. 2025. Vol. 4, No. 11. P. 15–17. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15447579>
 12. Inoyatova D. Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2025.
 13. Nurimbetov R., Davletov I., Tashmuxeimova K., Sultanov A. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari boshqaruv faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2019. № 2.
 14. UNECE. Good Practices for Energy-Efficient Housing in the UNECE Region. Geneva: United Nations Economic Commission for Europe, 2013. URL: <https://unece.org/fileadmin/DAM/hlm/documents/Publications/good.practices.ee.housing.pdf>
 15. Кирсанов С. А. Зарубежный опыт управления многоквартирными домами // ЖКХ: журнал руководителя и главного бухгалтера. 2011. № 10, ч. 1. С. 57–70.
 16. Иваненко Л. В. Зарубежный опыт эффективного управления многоквартирными домами // Вестник УГУЭС. Наука, образование, экономика. Серия: Экономика. 2014. № 1(7). С. 146–150.
 17. Акунина О. М. Зарубежный опыт государственного регулирования воспроизводства жилищного фонда // Политика, государство и право. 2015. № 3. URL: <https://politika.snauka.ru/2015/03/2521>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100